

01/02-24
03.12.2025-yil

“TASDIQLAYMAN”
SamDAQU rektori
Ch.J.Turkyilmaz



**Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
tarkibidagi Ta‘lim sifatini ta‘minlash bo‘limi to‘g‘risida
NIZOM**

Samarqand davlat arxitektura-qurilishi universiteti tarkibidagi Ta‘lim sifatini ta‘minlash bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 5 maydagi PF-76-sonli “Ta‘lim sifatini ta‘minlash va ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 6 avgustdagi 498-sonli “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori asosida tashkil etilgan.

I. UMUMIY QOIDALAR

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida sifat menejmenti tizimini joriy etish, nazorat qilish va sifat tamoyillariga muvofiq rivojlanishini ta‘minlash Ta‘lim sifatini ta‘minlash bo‘limiga (keyingi o‘rinlarda matnda - Bo‘lim deb yuritiladi) yuklatiladi.

Ta‘lim sifatini ta‘minlash bo‘limi to‘g‘ridan to‘g‘ri O‘zbekiston Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini ta‘minlash milliy Agentligiga (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) hisobdordir.

Bo‘lim universitetning tashkiliy tuzilmasiga kiradi va bevosita universitet Strategik rivojlantirish bo‘yicha birinchi prorektoriga bo‘ysunadi. Mazkur bo‘lim faoliyatiga boshqa prorektor, dekan va tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bo‘lim boshlig‘i lavozimiga nomzod Agentlik bilan kelishilgan holda universitet rektori buyrug‘i bilan lavozimiga tayinlanadi va shu tartibda lavozimidan ozod etiladi.

Bo‘limning Nizomi bo‘lim xodimlari tomonidan o‘ziga yuklatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun me‘yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Bo‘limning asosiy maqsadi universitetda kadrlar tayyorlash sifatini ta‘minlash bo‘yicha ichki baholashni tashkil etish, ta‘lim tashkilotini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazishga tayyorlash, ta‘lim sifatini doimiy monitoring qilib borish orqali unga ta‘sir etuvchi omillar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ta‘lim tashkiloti rahbariga hamda Agentlikka taqdim etib borish hamda ularni bartaraf etish choralari ko‘rishdan iborat.

Bo‘lim o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qarorlari, O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, Agentlik, Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi hamda universitet rektorining buyruqlari va qonuniy ko'rsatmalariga, shuningdek Bo'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq olib boradi.

Bo'lim amalga oshirilgan ishlar, muammolar va kamchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni bevosita universitet rektori hamda Agentlikka taqdim etadi.

II. BO'LIMNING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

1) Bo'limining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanadi:

universitetda kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va monitoringini olib borish;

talabalar bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarining fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganib borish va tahlil qilish;

professor-o'qituvchilarning dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilish;

universitetni kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga hamda xavfni tahlil qilish asosida navbatdan tashqari o'rganishga tayyorlash, ichki baholashdan o'tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

universitetda ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etilishini nazorat qilish;

o'quv jarayonini me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to'g'ri tashkil etilganligi va HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o'rganib borish;

malaka talablari, o'quv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish;

o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorati talab darajasida yo'lga qo'yilganligini o'rganib borish;

dars o'tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etilganligini o'rganib borish;

talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta'minlanganligi bo'yicha ko'rilgan choralar samaradorligini aniqlash;

professor-o'qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o'rganish;

professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish;

axborot-resurs markazida talaba va o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar holati, fanlar bo'yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o'rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish;

mustaqil ta'limni talab darajasida tashkil etilishini o'rganish va tahlil qilish (yo'riqnoma yoki uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta'limni tashkil etish uchun talablarni qo'yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta'minlash);

vazirlikning topshirig'iga muvofiq, boshqa oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganishda ishtirok etish.

2) Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

universitetda ta'lim sifatining DTS va malaka talablariga muvofiqligini ta'minlash, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha nazorat faoliyatini va kerakli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning normativ-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanganligini o'rganadi;

talabalarning darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanganlik darajasini va zamonaviy talablarga mosligini tahlil qiladi;

universitet professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini o'rganadi va xulosalarni universitet rektoriga ma'lum qiladi;

o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish holatini o'rganadi va ularni takomillashtirish bo'yicha tegishli takliflarni beradi;

universitet tarkibiy tuzilmalarining zamonaviy moddiy-texnik ta'minoti, o'quv-laboratoriya jihozlari, kompyuterlar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalaniganlik darajasini tahlil qiladi;

ta'lim jarayoniga ilmiy-tadqiqot institutlari, ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlari hamda xorijiy davlatlar malakali mutaxassislarining jalb etilishini tahlil qiladi;

talabalar bajarayotgan bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyasi mavzularining dolzarbligi, sifatini o'rganadi;

universitet axborot-resurs markazi fondining zarur adabiyotlar bilan ta'minlanganligini, ulardan foydalanayotgan professor-o'qituvchilar va talabalar salmog'ini aniqlaydi;

professor-o'qituvchilar reytingini aniqlash bo'yicha takliflar kiritadi;

universitetda ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifati, professor-o'qituvchilar, talabalar va kadrlar iste'molchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;

respublikada va xorijiy davlatlardagi ta'lim sifatini nazorat qilishga oid yangiliklarni doimiy o'rganib boradi va ularni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

universitetda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha olib borilgan o'rganishlar natijalari asosidagi takliflarni universitet rahbariga taqdim etadi.

III. BO'LIMNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3) Bo'lim quyidagi huquqlarga ega:

Bo'lim zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun universitet tarkibiy tuzilmalaridan zarur statistik, tahliliy hamda boshqa ma'lumotlarni olish;

Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining ta'lim jarayonlarini boshqarish HEMIS axborot tizimidan to'siqsiz foydalanish;

universitet va uning tarkibiy tuzilmalarida talabalar, tinglovchilar va o'quvchilarni o'qitish sifatini, ta'limning tegishli turlari bo'yicha ishchi o'quv rejalari va fanlarning ishchi dasturlarini DTSlariga, davlat talablariga, malaka talablariga va o'quv reja hamda fan dasturlariga muvofiqligini belgilangan tartibda o'rganish;

universitetni kompleks va maxsus davlat akkreditasiyasidan o'tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish va uning o'z vaqtida bajarilishini nazoratga olish;

universitetda ta'lim sifatiga oid qabul qilingan buyruqlar, farmoyishlar va boshqa qarorlarning yetarli darajada ijrosi ta'minlanmaganligi aniqlanganda, mas'ullarga nisbatan tegishli choralar ko'rish uchun rahbariyatga takliflar kiritish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati muammolari bo'yicha xalqaro konferensiyalar, anjumanlar, simpoziumlar, seminar va o'quvlarda ishtirok etish;

belgilangan tartibda universitetning saylanadigan tuzilmalari (universitet Kengashi va boshq.)ga saylash va saylanish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

4) Bo'lim quyidagi majburiyatlarga ega:

xizmat vazifalarini vijdonan bajaradi, korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaydi va o'z sha'niga dog' tushirmaydi;

taqdim qilinayotgan ma'lumotlarning aniqligi, haqqoniyligi va xolisligiga javob beradi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 yanvardagi 12-sonli "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ijro intizomiga, o'quv va mehnat intizomiga, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalar, universitet Ustavi, Ichki tartib hamda Odob-ahloq qoidalariga rioya etadi.

IV. BO'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

5) Bo'lim universitet tarkibida belgilangan shtatlar doirasida rektor buyrug'iga muvofiq tashkil etiladi.

Bo'lim yuridik shaxs maqomiga ega emas.

6) Bo'lim kamida 3 nafar (oylik ish haqi dekan lavozimiga tenglashtirilgan bo'lim boshlig'i va dekan o'rinbosari lavozimiga tenglashtirilgan 2 nafar bosh mutaxassis) xodimdan iborat bo'ladi;

Bo'lim xodimlarining oylik ish haqi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 1 avgustdagi "Respublika Oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga (Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 12-iyundagi 362 sonli "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" qarori bilan qo'shimchalar kiritilgan) muvofiq belgilanadi va OTM tomonidan to'lanadi. Bo'lim xodimlariga OTM xodimlari lavozimlari uchun belgilangan moddiy rag'batlantirish shartlari qo'llaniladi.

7) Bo‘lim faoliyatiga rahbarlik qilish bo‘lim boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

Bo‘lim boshlig‘ining lavozimi, dekan lavozimiga tenglashtiriladi. Bo‘lim boshlig‘i bo‘lmagan (ta‘til, betoblik, xizmat safari) davrda uning vazifasini bajarish bosh mutaxassisning biriga yuklatiladi.

8) Bo‘limga ta‘lim jarayonini tashkil etish va nazorat qilish sohasida amaliy-metodik ish tajribasiga ega bo‘lgan malakali mutaxassislar, shuningdek, ilmiy-pedagogik stajga ega bo‘lgan shaxslar malakaviy talablarga muvofiq belgilangan tartibda ishga qabul qilinadi.

V. BO‘LIM XODIMLARINING MALAKA TALABLARI VA FUNKSIONAL VAZIFALARI

9) Bo‘lim boshlig‘i lavozimiga qo‘yidagi malaka talablari qo‘yiladi:

oliy ma‘lumotli, ilmiy darajaga yoki ta‘lim sohasida muayyan tajribaga, nazariy bilimlarga, tashkilotchilik va boshqaruv qobiliyati ega bo‘lishi;

ta‘lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi;

ta‘lim muassasalaridagi pedagogik va ta‘lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta‘lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo‘lishi;

universitetning tarkibiy bo‘linmalari faoliyatidan xabardor bo‘lishi;

ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan lozim darajada foydalanishni bilishi;

o‘quv, ilmiy-tadqiqot va ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini to‘liq tushunishi, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr etish bo‘yicha o‘rnatilgan tartibni bilishi;

o‘zbek, rus tillarini yoki xorijiy tillardan birini mukammal bilishi.

10) Bo‘lim boshlig‘ining asosiy funksional vazifalariga bo‘lim faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari hamda ta‘limga oid boshqa amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, Agentlik, Oliy ta‘lim, fan va innovasiyalar vazirligi va universitet rektori ko‘rsatmalari hamda mazkur Nizom asosida tashkil etish;

bo‘limning joriy va istiqbol ish rejalarini ishlab chiqish kiradi.

11) I-Bo‘lim bosh mutaxassisining funksional vazifalariga quyidagilar kiradi:

Kafedra va bo‘limlardan universitet bo‘yicha Milliy reytingini aniqlashga doir statistik va tahliliy ma‘lumotlarni to‘plash va Ta‘lim sifatini ta‘minlash Milliy Agentligiga taqdim etish;

Respublika OTMlari Milliy reytingini aniqlash va baholash metodikasi asosida universitet kafedralari reytingini aniqlash;

Universitetni kompleks va maxsus davlat akkredatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha talab etilgan statistik ma‘lumotlarni to‘plash va Milliy Agentlikning maxsus axborot tizimiga yuklash;

Universitet reytingini aniqlashda kafedralar tomonidan berilgan ma‘lumotlarni to‘liqligi va ishonchligini tekshirish va qabul qilish;

Ekspertlar guruhi tarkibida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning ta'lim jarayoniga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanganligini o'rganish;

Professor-o'qituvchilar reytingini aniqlash bo'yicha ular faoliyati natijalarini monitoring qilib borish;

Ishchi guruhi tarkibida talabalar bilimni baholashning xolisligi shaffofligini nazorat qilish;

Laboratoriya uskuna va jihozlaridan foydalanish samaradorligini o'rganish, mashg'ulotlarining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan o'tkaziladigan "Ochiq darslar" va "Ochiq ma'ruzalar"ni tashkil etish, tahlil qilishda ishtirok etish va umumlashtirilgan ma'lumotnoma tayyorlash;

universitet axborot-resurs markazi fondining zarur adabiyotlar bilan ta'minlanganligini, ulardan foydalanish samaradorligini aniqlash bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;

12) II-Bo'lim bosh mutaxassisining funksional vazifalariga quyidagilar kiradi:

Bo'limning joriy va istiqbol ish rejalarini ishlab chiqish;

edo.ijro.uz elektron tizimi orqali kelib tushgan xatlar ijrosini to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

Universitet ta'lim yo'nalishlarini ichki baholashdan o'tkazish bo'yicha ekspertlar guruhi faoliyatini tashkil etish, audit jarayonlarida ishtirok etish;

Universitet kafedralarida zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlaridan foydalanish holatini o'rganib chiqish, tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va takliflar kiritish;

Universitet reytingini aniqlashda kafedralar tomonidan berilgan ma'lumotlarni to'liqligi va ishonchliligini tekshirish, qabul qilish va Milliy Agentlikka taqdim etish;

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning normativ-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanganligini o'rganish;

Professor-o'qituvchilar reytingini aniqlash bo'yicha ma'lumotlarni to'plash;

Ishchi guruhi tarkibida talabalar bilimni baholash hamda oraliq va yakuniy nazorat sinovlarining xolisligi shaffofligini nazorat qilish;

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari sifati va samaradorligini tahlil qilish;

universitet axborot-resurs markazi fondining zarur adabiyotlar bilan ta'minlanganligini, ulardan foydalanish samaradorligini aniqlash bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish

Mazkur Nizom Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Kengashida tasdiqlangan.